Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1298
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	
Внедрение цифровой трансформации высших учебных заведений.....	1302
<b>Кучаров Абдор Сабиржанович, Абдурахмонов Абдумалик Абдурашидович, Набиева Нилуфар Наби қизи</b>	
Mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimning rivojlanish tendensiyasi .....	1310
<b>Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi</b>	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari.....	1319
<b>Davronov Saxobiddin Faxriddinovich</b>	
O'zbekistonda suv zaxiralaridan foydalanishning retrospektiv tahlili .....	1324
<b>Axmedov Sayfullo Normatovich</b>	
Raqamli iqtisodiyot rivojlanishida to'lov tizimlarining o'rni .....	1334
<b>Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li, Rizayev Anvar Baxtiyorovich</b>	
Fostering Entrepreneurship and Enhancing Women's Employment: The Uzbekistan Perspective .....	1338
<b>Kholiyorova Shokhista</b>	
Zamonaviy soliq tizimlarining amal qilish xususiyatlari .....	1341
<b>Taniyev Ahmadjon Bahromovich</b>	
Mamlakatimizda tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy asoslari.....	1347
<b>Masharipov Maxmud Bekturdiyevich</b>	
Mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanishida hayot sug'urtasining o'rni .....	1352
<b>O. Jono'zoqov</b>	
Sanoatda resurs tejamliligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish .....	1358
<b>Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li</b>	
Southeast Asia's Green Economy and Environmental Taxation .....	1364
<b>Fayzieva Nargiza Rabimovna</b>	
Tijorat banklari biznesini boshqarishning asosiy yo'nalishlari va tahlili.....	1371
<b>Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich</b>	
O'zbekiston Respublikasida islom banklarini tashkil etishda xorij tajribasining o'rni.....	1375
<b>Yo'ldosheva Iroda Ibodulla qizi</b>	
Baliqchilik tarmog'ida samaradorlikni baholash masalalari.....	1380
<b>Fayziyev Oybek Raximovich, Aitimbetov Amirbek Koishibekovich</b>	
Qishloq xo'jaligida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy-iqtisodiy asoslari va davlat siyosati..	1389
<b>Xalikov Suyun Ravshanovich</b>	
O'zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ilmiy yondashuvlar .....	1394
<b>Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich</b>	
O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik loyihalarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish.....	1401
<b>Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o'g'li</b>	
Korxonalar faoliyatini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar asosida reytingni aniqlash .....	1411
<b>Maxkamboyev Komil Abdulkakovich</b>	
Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda klaster-kooperatsiya tizimi samaradorligini oshirish masalalar .....	1416
<b>Xo'jaqulova Nigora Rustamovna</b>	
Kimyo tolalari asosida to'qimachilik sanoatini diversifikatsiyalash.....	1424
<b>Raximov Furqat Jalolovich</b>	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari.....	1431
<b>Alimbayeva Sevara Alimbayevna</b>	
O'zbekistonda islom banklarini tashkil etish zaruriyati va rivojlantirish imkoniyatlari .....	1437
<b>Yo'ldosheva Iroda Ibodulla qizi</b>	
Yalpi sug'urta mukofoti hajmiga ta'sir etuvchi omillar asosida sug'urta bozorini ekonometrik tahlili.....	1441
<b>Mirzayev Bobur Soyibjonovich</b>	



# YALPI SUG'URTA MUKOFOTI HAJMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR ASOSIDA SUG'URTA BOZORINI EKONOMETRIK TAHLILI



**Mirzayev Bobur Soyibjonovich**

I.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta'lim tashkiloti,  
"Iqtisodiyot" fakulteti, "Moliya" kafedrası mudiri, dotsent

**Annotatsiya:** Maqolada sug'urta faoliyati bozor iqtisodiyoti moliyaviy infratuzilmasining ajralmas tarkibiy qismi va iqtisodiyotning yaxlitlikda barqaror rivojlanishini taminlovchi muhim omillardan ekanligi va bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashda va aholini ko'ngilsiz hodisalardan himoya qilishda sug'urtaning o'ziga xos muhim o'rni to'g'risida fikr yuritilgan. Shu bilan birga, yalpi sug'urta hajmiga ta'sir etuvchi omillar ekonometrik tahlili amalga oshirilgan.

**Kalit so'zlar:** sug'urtaga talab, yalpi sug'urta, sug'urta zahirasi, sug'urta koplarnasi, sug'urta mukofoti, investitsiya, ekonometrik model, model parametrlari.

**Abstract:** The article discusses the fact that insurance activity is an integral part of the financial infrastructure of the market economy and one of the important factors that ensure the stable development of the economy in its entirety, and the unique important role of insurance in ensuring the continuity of production in the conditions of the market economy and protecting the population from unpleasant events. At the same time, an econometric analysis of the factors influencing the volume of gross insurance was carried out.

**Key words:** demand for insurance, gross insurance, insurance reserve, insurance coverage, insurance premium, investment, econometric model, model parameters.

**Аннотация:** В статье рассматривается тот факт, что страховая деятельность является составной частью финансовой инфраструктуры рыночной экономики и одним из важных факторов, обеспечивающих стабильное развитие экономики в целом, и уникальная важная роль страхования в обеспечении непрерывности производства в условиях рыночной экономики и защиты населения от неприятных событий. При этом был проведен эконометрический анализ факторов, влияющих на объем валового страхования.

**Ключевые слова:** спрос на страхование, брутто-страхование, страховой резерв, страховое покрытие, страховая премия, инвестиции, эконометрическая модель, параметры модели.

## KIRISH

Hozirgi davrda sug'urtalash mamlakat iqtisodiyotining moliyaviy-xo'jalik munosabatlari tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi, tadbirkorlik subyektlari, iqtisodiyotning boshqa subyektlari sug'urtalashni tabiiy ofatlardan ko'riladigan zararlar, kutilmagan hodisalar, o'z tijorat faoliyati va boshqalar bilan bog'liq xarajatlarni qoplashni kafolatlovchi iqtisodiy tizimlar sifatida talqin qiladilar.

Sug'urtalash, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi, sug'urta holatlari ro'y berganda insonlarning yuqori turmush sifati va daromad darajasini ta'minlab berishga qaratiladi <sup>[1]</sup>. Sug'urta himoyasini taqdim etish, risklarni oshirish bilan bog'liq tarmoqlarning yaratilishi hamda ilmtalab etuvchi tarmoqlarni muvaffaqiyatli amal qilishi uchun imkoniyat yaratadi.

AQShda sug'urtaning mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan ulushi 11,8% bo'lsa-da, mukofotlar hajmi ancha past bo'lgan ayrim bozorlarda, masalan, Buyuk Britaniyada (399 mlrd. AQSh dollari) sug'urtaning uning iqtisodiyotidagi salmog'i yuqori bo'lib, 12,5% ga yetdi. Dunyoning eng yaxshi 15 ta sug'urta bozorining oltitasida sug'urta yalpi ichki mahsulotga nisbatan ikki xonali raqamga ega bo'lib, bu sug'urtaning ularning iqtisodiyoti uchun ahamiyatini ta'kidlaydi. Gonkong 20% ga yaqin bo'lib, reytingda yetakchilik qilmoqda. Tayvan va Janubiy Koreyada bu ko'rsatkich mos ravishda 14,5% va 10,7% ga teng <sup>[2]</sup>. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston sug'urta sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotida juda kam ulushni egallaydi. Shu bilan birgalikda, sug'urta sohasi juda katta foydalanilmayotgan potentsialga egadir.





Dunyoda eng yirik sug'urta va qayta sug'urta hamda o'z tadqiqot institutiga bo'lgan Swiss Re Group tashkilotining ma'lumotiga ko'ra <sup>[3]</sup>, 2021-yilda jahon sug'urta mukofotlari 6,9 trln. AQSh dollariga yetgan. Jahon sug'urta bozorida yetakchi o'rinda AQSh, Xitoy, Yaponiya davlatlari bo'lib, ularning bozordagi ulushi 58% dan oshadi. Swiss Re instituti tadqiqotiga ko'ra COVID-19 pandemiyasidan keyin sug'urta bozori o'zini oldingi o'sish sur'atlarini tiklab oladi. Swiss Re instituti prognoziga ko'ra 2022-yilda sug'urta bozorining 3,9% ga usishi kutilmoqda. Natijada, shu yilga kelib sug'urta mukofoti 7 trln. AQSh dollaridan oshadi. Bu davrda Xitoy davlatida sug'urtaning yuqori o'sishi kuzatiladi. Jahon iqtisodiy forumi tomonidan tayyorlangan yillik The Global Risks Report–2022 hisobotida <sup>[4]</sup> keltirilishicha, kovid pandemiyasidan ham xavfliroq bo'lgan global risklar keltirib o'tilgan. Bular orasida atrof-muhit o'zgarishi risklari, ayniqsa, katta talofatlarga olib kelishi ta'kidlangan. Shuningdek, sug'urta biznesi uchun xavfli risklar sirasiga yuqumli kasalliklar, iqtisodiy krizislar va ekstremal tabiat hodisalari kiritilgan.

Sug'urta yig'implarining yildan-yilga o'sib borishiga qaramay, hozirgi kunda sug'urta yig'implarining hajmi respublika yalpi ichki mahsulotiga nisbatan 0,7 foizni tashkil etadi. Dunyo bo'yicha ushbu ko'rsatkich o'rtacha 7,3 foizni tashkil etadi <sup>[5]</sup>.

O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorini sig'imi jahon bo'yicha sug'urta bozorini o'rtacha sig'imidan qariyb 15 barobarga kamligi sug'urta bozorini rivojlantirish zaruriyatini ko'rsatadi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini miqdoriy baholash muhim hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Respublikamizda sug'urta bozorini rivojlantirish va raqamlashtirish masalalari borasida ham biroz tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, N. I. Abduraxmonova, N. D. Musurmonovlar (2022) <sup>[27]</sup> tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida agrar sektordagi tarkibiy o'zgarishlar o'rganilgan bo'lsa, O. R. Fayziyev (2022) <sup>[26]</sup> tomonidan esa, bugungi kunda jahon sug'urta bozorida raqobat keskin kuchaygan bir vaqtda potensial sug'urta qildiruvchilarga onlayn rejimda sug'urta xizmatlarini ko'rsatish rivojlangan davlatlarning tegishli ko'rsatkichlaridan ancha ortda qolayotganligini ilmiy ishlarida tatqiq etib, O'zbekiston sug'urta bozorini raqamlashtirish asosida boshqarish va sug'urta kompaniyalari tomonidan taklif qilinayotgan sug'urta xizmatlarini raqamli sug'urta xizmatlariga o'tkazish masalalariga alohida e'tiborini qaratgan.

Bundan tashqari, ko'plab adabiyotlarda sug'urta bozori rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilingan. Olimlar turli nuqtayi nazardan, shu jumladan, mikro va makroiqtisodiy jihatdan tahlil qilishgan. Arena (2008) <sup>[6]</sup>, Li v.b. (2006) <sup>[7]</sup> va Anghelache v.b. (2019) <sup>[8]</sup> turli mamlakatlar ma'lumotlaridan foydalangan holda sug'urta rivojlanishi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha tadqiqot olib borishgan. Hong v.b.(2014) <sup>[9]</sup>, Tang (2015) <sup>[10]</sup>, Gao (2018) <sup>[11]</sup> va Vang (2019) <sup>[12]</sup> Xitoyda sug'urta va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatlarni o'rganganlar. Ular iqtisodiy o'sish sug'urtaga bo'lgan talabga ta'sir ko'rsatganligi va aholining moliyaviy holati sug'urta xizmatlarini sotib olish qobiliyatini ko'rsatganligi sababli iqtisodiy o'sish sug'urta rivojini sezilarli darajada oshirishini aniqlashdi. Zxou F. J. (2014) <sup>[13]</sup>, Yuan Y. M. (2015) <sup>[14]</sup>, Yang R. va Zhu J. M. (2019) <sup>[15]</sup> pul-kredit siyosatining sug'urta bozoriga ta'siri borasida tadqiqot olib borishgan. Ularning tadqiqot natijalariga ko'ra, pul-kredit siyosatining turli shakllari sug'urta sohasining rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Hu va Chen (2012) <sup>[16]</sup>, Vang (2019) <sup>[17]</sup> va Paunika v.b. (2019) <sup>[18]</sup> inflyatsiya narx oshishi bo'yicha inflyatsion kutilmalar va uzoq muddatli sug'urtaga talabning tushishiga olib kelishini aniqlagan holda inflyatsiyaning sug'urta sanoatini rivojlantirishiga ta'sirini o'rganishgan. Tian (2017) <sup>[19]</sup> tadqiqotlari Xitoyda sug'urta sanoyati rivojlanishini empirik tahlil qilishga asoslangan. Ularning tadqiqotlarida milliy jamg'armalar va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar sug'urta sanoati rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillar ekanligini aniqlangan. Shu bilan birgalikda, Zhou X. L. va Guo J. L. (2012) <sup>[20]</sup> va Tian (2017) <sup>[21]</sup> aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'urta xarajatlari va foiz stavkasi o'rtasida zich teskari korrelyatsiya borligini aniqlagan.

Xitoylik olimlar L. Xan, D. Li, Yu. Tian va boshqalar tomonidan 1994-2005 yillardan iborat bo'lgan davr va 77 ta mamlakatni qamrab olgan holda umumlashtirilgan momentlar usuli modelidan foydalanib olib borilgan tadqiqotda sug'urta bozori rivojlanishi va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Tadqiqotda mamlakatlar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga bo'lib o'rganilgan. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun sug'urta bozori jumladan, hayot sug'urtasi rivojlanishining ahamiyati rivojlangan mamlakatlarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlangan <sup>[22]</sup>.

Boshqa olimlar Ch. Yuan va Yu. Jiang <sup>[23]</sup> tomonidan olib borilgan tadqiqotda Xitoyda sug'urta sohasida amalga oshirilgan islohotlar va so'nggi yillar mobaynida sug'urtaga bo'lgan talabning oshishi natijasida sug'urta bozorini jadal rivojlantirishga erishilgani ta'kidlangan. Ular tomonidan 2000-2012-yil hududlar kesimidagi ma'lumotlar asosida umumiy sug'urta va hayot sug'urtasiga bo'lgan talabga ta'sir etuvchi omillar tadqiq etilgan.

Fransiyalik tadqiqotchilar P. Pikarda va J. Pinquet <sup>[24]</sup> tomonidan yirik moliya-sanoat guruhlar tomonidan shu guruhga kiruvchi kompaniyalarning risklarini sug'urtalash uchun tashkil etiladigan sug'urta kompaniyalari



o'rganilgan. Bunday sug'urta kompaniyalari markazlashmagan tarkibiy bo'limlardan iborat moliya-sanoat guruhiga kiruvchi kompaniyalarning risklarini qayta sug'urtalovchilarga optimal taqsimlash bilan shug'ullanadi.

Simona Laura Dragos va Kristian-Mixai Dragos<sup>[25]</sup> tomonidan olib borilgan tadqiqotda multiplikativ regresion modelidan foydalangan holda Yevropadagi 31 davlat misolida sug'urtaga bo'lgan institutsional talabni baholangan. Ushbu tadqiqotda ular hayot sug'urtasi rivojlanishida biznes yuritish erkinlik darajasi, soliq yuki va davlat xarajatlari eng ahamiyati yuqori bo'lgan ko'rsatkichlardan hisoblanadi, degan xulosaga kelgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sug'urta bozorini barqaror rivojlanishini ta'minlashda jarayon borishini oldindan baholay bilish muhim omil sanaladi. Bu borada jarayonni matematik va statistik usullar yordamida tahlil qilish, ekonometrik modellar yordamida prognozlashtirish usullardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shunday ekan, Sug'urta bozorini rivojlantirishini ifodalovchi ko'rsatkichga aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM, inflyatsiya, savdoning ochiqlik indeksini sug'urta mukofotlariga ta'sirini ekonometrik usullar bilan baholashdan iborat.

Sug'urta bozorini rivojlanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etilgan tadqiqotlarni o'rganish, sug'urta bozorini rivojlantirishni ekonometrik usullarini qiyosiy solishtirish, ekonometrik model asosida baholangan qiymatlarni iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruxlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Sug'urta bozorining statistik tadqiqoti sug'urta faoliyatiga tegishli ma'lumotlarni to'plashga asoslangan. Sug'urta bozorini statistik kuzatish jarayoni kishilik jamiyatining va undagi alohida olingan guruhlarining moddiy va ma'naviy manfaatlariga turli ijtimoiy xodisalar, tabiiy, texnogen va inson faoliyati bilan bog'liq jarayonlarning ta'sirlarini mukammal o'rganishni talab etadi. Ya'ni kishilik jamiyatiga ta'sir etuvchi u yoki bu hodisalarning ro'y berishi sug'urta obyektlari orasida sug'urta hodisasi ro'y berish ehtimoliga va sug'urta hodisalarining zararlilik darajasiga ta'sirini aniqlamasdan turib raqobatli sug'urta tizimini shakllantirib bo'lmaydi.

Sug'urta faoliyatining rivojlanishi sug'urta bozorini statistik o'rganishni to'g'ri tashkil etilishiga bevosita bog'liqdir. Sug'urta faoliyati imkon qadar ko'proq sug'urtalanuvchilardan sug'urta badallarini yig'ib, muayyan sug'urta hodisalari yuz berganda ularga kafolatlangan sug'urta to'lovlarini to'lash orqali o'z zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarishga, istiqboldagi sug'urta to'lovlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan sug'urta rezervlarini shakllantirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda Respublika sug'urta tashkilotlarida statistik hisobotlarni yuritish, hisobotlarni tayyorlashda hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar mavjud. Ayniqsa, Respublikamizdagi sug'urta faoliyatining o'ziga hos tomonlarini inobatga olgan holda, ularni ko'rsatkichlarini statistik usullarda o'rganish va tahlil qilish, bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda yuritish hozirgi kunning dolzarb muammolaridandir. Ushbu muammolarning ijobiy hal etilishi sug'urta kompaniyalarining iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Ta'kidlash joizki, sug'urta kompaniyalari tovar ishlab chiqaruvchilarning tavakkalchiligini, shuningdek, ishlab chiqarishga aloqador xavf-xatarlarni o'z zimmalariga olib, ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilarining ijtimoiy va boshqa manfaatlarini himoya qilish orqali ijtimoiy mehnat samaradorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bunga erishish uchun sug'urta faoliyatini statistik hisobotini to'g'ri yuritish, ma'lumotlarni yig'ishda statistikaning ilg'or usullaridan keng foydalanish, jahon miqyosida to'plangan nazariy va amaliy tajribalarni joriy qilish, shuningdek, O'zbekistonda sug'urta faoliyatini statistik o'rganishni milliy hisoblar tizimi hamda xalqaro standartlarga muvofiqlashtirgan holda tashkil etish kerak bo'ladi.

Statistik to'plamlarda sug'urta faoliyati xizmatlar tarkibiga kiritilganligi joiz sug'urta mahsuloti bo'yicha alohida ma'lumotlar keltirilmaydi.

Milliy va hududiy darajada sug'urta himoyasini hisoblashda, avval, bozorning sig'imkorligi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun absolyut ko'rsatkichlar bilan bir qatorda nisbiy ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi. Asosiy absolyut ko'rsatkichlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sug'urta tashkilotlarining soni;
- sug'urta mukofotlari (jami, tarmoqlar kesimida) (2-jadval);
- sug'urta to'lovlari (jami, tarmoqlar kesimida) (3-jadval).
- aholi soni;
- YAIM;
- aholi daromadlari.



1-jadval: O'zbekistonda sug'urta bozori faoliyati ko'rsatkichlarining 2016-2022-yillardagi dinamikasi (mlrd. so'mda)

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1. Sug'urta mukofoti	692,6	927,4	1635,2	1727,55	1879,3	3732,02	6231,7
2. Sug'urta qoplamasi	130,5	269,9	460,8	284,09	737,6	1235,06	2596,9
3. Sug'urta zaxirasi	566,7	766	1112,2	1332	1439	1546	1884
4. Sug'urta investitsiyasi	867,5	1482,5	2010,7	3018,7	3382,7	3746,7	4751,7
5. Yalpi mahsulot	1571,5	2339,3	3531,3	4681,96	4631,4	6350,66	8724,5

Izoh: jadval Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Asosiy nisbiy ko'rsatkichlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. O'zbekistonning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari asosida mamlakat sug'urta bozorining quyidagi indikatorlarini hisoblab topamiz:

1. Sug'urtani qamrab olish darajasi:

$$\text{Sug'urta mukofotlarining ulushi} = \frac{\sum \text{sug'urta mukofotlari}}{\text{YAIM (YaHM)}} = \frac{6\,231,7}{888\,300} = 0,7$$

2022-yilda YAIMda sug'urtaning ulushi 0,7% ni tashkil etmoqda. 2019-yilga nisbatan 0,3 punktga oshgan. Ammo bu dunyo bo'yicha ko'rsatkichlardan ancha kam. Jahon yalpi ichki mahsulotida sug'urta YAIMning 5-6%ni tashkil qiladi.

Sug'urtaning qamrab olish darajasi

2. Sug'urtalash zichligi:

$$\text{Jon boshiga sug'urta mukofotlari} = \frac{\sum \text{sug'urta mukofotlari}}{\text{Aholi soni}} = \frac{6\,231,7}{0,035} = 173\,102,8$$

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'urta mukofoti 173 102,8 so'mni tashkil qilyapti. Bu taxminan 15,25 AQSh dollarga teng. Dunyo bo'yicha sug'urta zichligi 883,58 AQSH dollarga teng.

Bozor iqtisodiyotining statistikasi bo'lmish "Milliy hisoblar tizimi" konsepsiyasiga ko'ra sug'urta faoliyatining yalpi mahsuloti quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$Q = R - c + p \pm N \quad (1)$$

bu yerda:

Q – yalpi mahsulot;

R – sug'urta mukofoti;

c – sug'urta qoplamasi (tovoni);

p – investitsion faoliyatdan olingan daromad;

N – sug'urta texnik zahiralar hajmini o'zgarishi.

Ravshanki, agar N musbat qiymatga ega bo'lsa qo'shiladi, manfiy qiymatga ega bo'lsa ayirib tashlanadi.

Yuqoridagi jadvalda O'zbekiston sug'urta bozorining 2016-2022-yillardagi asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan. Sug'urta faoliyatining yalpi mahsulotini (1) formula bilan hisoblashda investitsiyadan olingan daromad o'rtacha 15 foiz deb olingan.

Sug'urta bozorining yalpi mahsuloti dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, uni o'sish darajasi mamlakat YAIM o'sish darajasiga yaqin bo'lsa ham, YAIMda ulushi 0,51 foizdan oshmagan. Xolbuki, rivojlangan mamlakatlarda ushbu ulush 8-10 foizni tashkil qilmoqda.

Sug'urta faoliyati o'zining mohiyatiga ko'ra ehtimollar nazariyasiga asoslangan munosabatlar tizimi bo'lganligi sababli, hodisalar orasidagi o'zaro bog'lanishlarni o'rganishda bugungi kunda sug'urta jarayonini ekonometrik modellashirishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Tahlil jarayonda ikki xil belgilar yoki ko'rsatkichlar ishtirok etadi, biri erkli o'zgaruvchilar, ikkinchisi erksiz o'zgaruvchilar hisoblanadi. Birinchi toifadagi belgilar boshqalariga ta'sir etadi, ularning o'zgarishiga sababchi bo'ladi, shuning uchun ular omil belgilar deb yuritiladi, ikkinchi toifadagilar esa natijaviy belgilar deyiladi. Masalan, shahar ichidagi transport qatnovi ortishining yoki xaydovchilar xaydovchilik staji ozligining yo'l transport hodisalar ro'y berish ehtimolini oshiradi. Bu bog'lanishda yo'l transport hodisalar ro'y berish ehtimoli natijaviy belgi bo'lsa, unga ta'sir etuvchi kuchlar (shahar ichidagi transport qatnovi, xaydovchilar xaydovchilik staji, yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarima va jazolar darajasi va h.k.) omil belgilar bo'la oladi.



Omllarning har bir qiymatiga turli sharoitlarida natijaviy belgining har xil qiymatlari mos keladigan bog'lanish orqali korrelyatsion bog'lanish aniqlanadi. Korrelyatsion bog'lanishning xarakterli xususiyati shundan iboratki, iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida inflyatsiya ta'sirida narxlar turli sur'atlar bilan o'zgarishi yoki davriy kuza-tuvlar yetishmasligi natijasida vaqtlar aro ko'rsatkichlarni jamlab o'rganish mushkullik tug'dirsa, omllarning aniq daraja ko'rsatkichi noma'lum bo'lsa-da, formulalar orqali omillar o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'rsatish imkonini beradi. Masalan, 1-jadval ma'lumotlari asosida


$$\ln Q = 1,28 + 0,32\ln R + 0,58\ln p$$

korrelyatsion-regression tenglama olingan. Tenglama parametrlari shundan dalolat beradiki, sug'urta bozorida sug'urta mukofotining 1 foizga o'zgarishi yalpi mahsulotining 0,32 foizga o'zgarishiga olib keladi, investsiyaning 1 foizga o'zgarishi sug'urta bozori yalpi mahsulotining 0,58 ga o'zgarishiga olib keladi.

Modeldagi parametrlarning statistik ahamiyatligini aniqlash uchun Styudent testidan foydalanildi. Birin-chidan, t-test o'tkazish uchun tjadval qiymatini aniqlaymiz. Styudent taqsimot jadvaliga ko'ra, bu model uchun  $t_{\text{jadval}} = 2,57$  ga teng. Sug'urta mukofotlari o'zgaruvchisi oldidagi parametrlarning  $t_{\text{haqiqiy}} = 5,59$  ga teng. Parametr ahamiyatli bo'lishi uchun  $t_{\text{haqiqiy}} > t_{\text{jadval}}$  shart bajarilishi kerak. Demak sug'urta mukofotlari o'zgaruvchisi oldidagi parametr statistik ahamiyatga ega. Investitsiya o'zgaruvchisi oldidagi parametrlarning  $t_{\text{haqiqiy}} = 8,04$  ga teng. Bu shuni anglatadiki, investitsiya o'zgaruvchisining yalpi mahsulotga ta'siri statistik ma'noga ega.

Modelni o'zining sifatligini aniqlash uchun F-testdan foydalanamiz. Model uchun  $F_{\text{haqiqiy}} = 573,26$  ga teng.  $F_{\text{jadval}} = 4,1$  ga teng.  $F_{\text{haqiqiy}} > F_{\text{jadval}}$  shart qanoatlanirilganligi sababli, model statistik ahamiyatli ega.

O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlanishini prognoz qiymatlari 2022-yilga nisbatan 40,1% o'sish aniqlandi. Bunda 2023-yilda respublikadagi sug'urta mukofotlari 8 731 428,0 mln. so'mni tashkil qilishi aniqlandi. Keyingi to'rt yilda sug'urta mukofotlaridagi o'sish tendensiyasi o'rtacha o'sish sur'ati 53,7%ni tashkil qilishi aniqlanib, 2026-yilda sug'urta mukofotlari 16 230 534,0 mln. so'mni tashkil qilishi prognozlashtirildi.



1-rasm: Respublikada sug'urta mukofotlarining 2023 -2026-yillar uchun 3 xil ssenariy bo'yicha prognozi, (mlnr. so'mda)

Respublikada sug'urta bozorini rivojlanish tendensiyalariga ko'ra 2017-2021-yillarda sug'urta mukofotlari 3,2 barobarga oshgan. 2023-2026-yillardagi prognoz natijalari esa sug'urta mukofotlari 2,7 barobarga oshishi mumkinligi ko'rsatdi (1-rasm). Bu esa hududlarda sug'urtani rivojlanish tendensiyalari keyingi yillarda ham davom etishini ifodalab beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Berilgan prognozlar iqtisodiy ko'rsatkichlarning sug'urta bozori rivojlanganlik darajasini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkich sug'urta mukofotlar hajmiga ta'siri baholash natijalariga ko'ra olingan. Asosiy makroiqtisodiy omillarning ta'sirini o'rganishdan maqsad modelga kiritilgan omillarning o'zgarishiga qarab sug'urta mukofotlarining qanday o'zgarishini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Sug'urta faoliyati tijorat soha bo'lganligi sababli, sug'urta tashkilotlari ko'rsatadigan sug'urta xizmatlari narxini qabul qilayotgan risklarning darajasiga qarab belgilashni taqozo qiladi. Risklarning sodir bo'lish ehtimoli





kutilmaganda keskin ortib ketishi sug'urta tashkilotlarining moliyaviy tanazzuliga olib keladi. Ushbu kabi holatlar oldini olish uchun, sug'urta tashkilotlari doimiy ravishda risklarning dinamikasi va ularning tahlili bilan shug'ullanishlari kerak. Shu sabab sug'urta faoliyatida statistik tadqiqotlar boshqa sohalarga nisbatan ancha kengroq, ilmiy jihatdan mukammalroq darajada olib boriladi.

Sug'urta tashkilotlari o'z faoliyatlari daromadliklarini ta'minlash maqsadida doimiy ravishda mijozlar to'g'risida ma'lumotlar bazasini yuritishlari va mukammal ekonometrik tahlillar orqali raqobatli sug'urta tariflari qo'llanishini ta'minlashlari talab etiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, sug'urta bozori faoliyatining zamonaviy matematik statistika usullari bilan tadqiq etish sug'urtalashning ko'pgina muammolarini atroflicha tadqiq qilish imkonini beradi.

Sug'urta sohasining iqtisodiy ahamiyati asosan yalpi sug'urta mukofotlari hajmining YAIMdagi ulushiga qarab baholanadi. Garchi turli mamlakatlar sug'urta mukofotlari darajasida sezilarli o'zgarish, farq mavjudligi sababli bu o'lchash sug'urta xizmatlari to'g'risida to'liq xulosani bera olmasa-da, bu usulda baholashda valyuta omili ta'sir ko'rsatmaydi. Rivojlangan mamlakatlarda yalpi sug'urta mukofotlarining hajmi YAIMning 7-8% ni tashkil etsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu 2%dan ham pastroq ko'rsatkichga ega.

Respublika iqtisodiyotini barqaror rivojlanishida sug'urta bozorining mamlakat mintaqalariga chuqur kirib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham aytish mumkinki, rivojlangan sug'urta bozori faqat samarali faoliyat yurituvchi mintaqaviy sug'urta bozori mavjudligiga asoslanadi. Rivojlangan sug'urta infrastrukturasi sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqaror faoliyat yuritishlari, sug'urta tarmog'ini samarali boshqarish hamda ular investitsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash va umuman aholi manfaatlari yo'lida kompleks rivojlanishlariga asos bo'ladi. Bugungi kunda, sug'urta bozori rivojlanishini asosiy shartlaridan biri, bu sug'urtalovchilarning va ularni mijozlari o'rtasida aniq va tushunarli munosabatlarning o'rnatilishidir. Bunda sug'urta bozori rivojlanishining asosiy omili mijoz uchun qulay, arzon va sifatli sug'urta xizmatlarning ishlab chiqilishi va mijozning hayoti va mulkiy manfaatlarida xavf paydo bo'lgan taqdirda, undan mijozning foydalanishi hisoblanadi. Hududiy sug'urta bozorini rivojlantirish dasturini amalga oshirishda bozorining har bir segmenti strategiyasini inobatga olinishi kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шихов А.К. Страхование: Учеб. пособие для вузов. —М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2000.
2. MAPFRE Economics rasmiy sayti ma'lumotlari
3. Sigma 3/2021 — World insurance: the recovery gains pace. <https://www.swissre.com/institute/research/sigma-research/sigma-2021-03.html>.
4. The Global Risks Report 2022, 17th Edition, is published by the World Economic Forum. [https://www3.weforum.org/docs/WEF\\_The\\_Global\\_Risks\\_Report\\_2022.pdf](https://www3.weforum.org/docs/WEF_The_Global_Risks_Report_2022.pdf)
5. <https://tradingeconomics.com/united-states/life-insurance-premium-volume-to-gdp-percent-wb-data>.
6. Arena, M. (2008). Does insurance market activity promote economic growth? A cross-country study for industrialized and developing countries. *Journal of Risk and Insurance*, 75(4), 921–946.
7. Yuanyuan Li & Bertrand Wigniolle. Endogenous information revelation in a competitive credit market and credit crunch. 2016.
8. Anghelache, C., Anghel, M. G., Capusneanu, S., & Topor, D. (2019). Econometric model used for GDP correlation analysis and economic aggregates. *Economic Computation and Economic Cybernetics Studies and Research*, 53(1), 183–197.
9. Hong, M., Huang, H. Z., & Jiao, J. Y. (2014). An empirical research on factors influencing the growth of Chinese insurance industry. *Insurance Studies*, 2, 11–22.
10. Tang, X. T. (2015). Econometrical analysis of the influence factors of Chinese insurance industry development [PhD thesis]. Dongbei University of Finance and Economics.
11. Gao, X. J. (2018). Research on the relationship between insurance development and economic growth in China. *China Collective Economy*, 3, 20–22
12. Wang, X. (2019). An empirical analysis of insurance and macroeconomics in China. *Marketing Research*, 12, 24–26.
13. Zhou, F. J. (2014). An analysis on the relation between property insurance premium income and money supply in China. *Business*, 16, Article 89.
14. Yuan, Y. M. (2015). An analysis on the influence of China's monetary policy on insurance industry. *Fujian Finance*, 7, 27–30.
15. Yang, R., & Zhu, J. M. (2019). An empirical study on monetary policy and insurance development based on VAR model. *Journal of Liaoning University of Technology (Social Science Edition)*, 21(3), 13–16.
16. Hu, L., & Chen, J. (2012). An analysis on the influence of inflation on the development of insurance industry. *Insurance Studies*, 1, 30–35
17. Wang, X. (2019). An empirical analysis of insurance and macroeconomics in China. *Marketing Research*, 12, 24–26.
18. Paunica, M., Manole, A., Motofei, C., & Tanase, G. I. (2019). The impact of remittances on GDP and household consumption. An European union countries analysis. *Economic Computation and Economic Cybernetics Studies and Research*, 53(4), 97–114.



19. Tian, X. Y. (2017). The influential factors analysis and the time series analysis of the Chinese insurance industry development [PhD thesis]. Beijing University of Technology.
20. Zhou, H. L., & Guo, J. L. (2012). Analysis on affecting factors of China's life insurance product supply. *Insurance Studies*, 11, 62–74.
21. Tian, X. Y. (2017). The influential factors analysis and the time series analysis of the Chinese insurance industry development [PhD thesis]. Beijing University of Technology.
22. L. Han, D. Li, F. Moshirian and Y. Tian. Insurance Development and Economic Growth. *The Geneva Papers on Risk and Insurance. Issues and Practice* Vol. 35, No. 2 (April 2010), pp. 183-199.
23. Ch. Yuan, Y. Jiang. Factors affecting the demand for insurance in China. *Applied Economics* Volume 47, 2015 - Issue 4.
24. P. Picardava J. Pinquet. Optimal Risk Financing in Large Corporations through Insurance Captives. *The Geneva Risk and Insurance Review*, 2013, 38, (48–86)
25. S. Dragos. Life and non-life insurance demand: the different effects of influence factors in emerging countries from Europe and Asia. *Economic Research*. Volume 27, 2014 - Issue 1.
26. Fayziyev O.R. Sug'urta bozorini raqamlashtirishda xorij tajribasi / "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, buxgalteriya hisobi va auditni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami – Samarqand, 2023. – B. 204-208.
27. Fayziyev O.R., Abduraxmonova N.I., Musurmonov N.D. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida agrar sektordagi tarkibiy o'zgarishlar / "Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, tahlil, auditorlik faoliyati va moliya-kredit mexanizmini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – Toshkent, 2022. – B. 438-442.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.